

O'zbekiston Respublikasida Suv Tejovchi Texnologiyalarni Joriy Qilishning O'Ziga Xos Xususiyatlari

*Jalolov Sherzod Rustamovich*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilishning nazariy va amaliy masalalari, suvni tejaydigan texnologiyalarni turlari, suv resurslaridan samarali foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslari, suv resurslarini boshqarish va suvni tejash borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: Suv resurslari, suv tejovchi texnologiyalar, suv tanqisligi, toza ichimlik suvi.

Suv – bu hayot! Yer yuzida hayot mavjudligining asosiy manbai suvdur. Ma'lumki, insoniyat, o'simlik va hayvonot olami, umuman, hech bir jonzot suvsiz yashay olmaydi. Yer sharining uchdan ikki qismi suv bilan qoplangan bo'lsa-da, uning 97,5 foizi sho'r suvlar bo'lib, ishlatishga yaroqsizdir. Qolgan 2,5 foizi chuchuk suv resurslarini tashkil etib, uning 79 foizi abadiy muzliklar, 20 foizi yer osti suvlari, 1 foizi esa daryo va ko'llar hissasiga to'g'ri keladi². Chuchuk suvning deyarli barchasi Antarktida va Grenlandiya kabi Arktika xududlarida muz qoplami va yerosti suvlari shaklida saqlanadi³. YUNESKOning 2003 yilda qayd etilgan ma'lumotlariga qaraganda, eng toza ichimlik suvi bo'yicha birinchi o'rinni Finlyandiya, undan keyingi o'rinlarni Kanada va Yangi Zelandiya egallaydi⁴.

Sharq falsafasida, jumladan, alloma al-Forobiy asarlarida ham borliqdagi to'rtta unsur – tuproq, havo, suv va olov muqaddasligi ta'kidlanadi⁵. Zero, suvni e'zozlamoq, kelajakni asramoq demakdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga ko'ra fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar⁶.

Kishi umri davomida o'rtacha 75 tonna suv iste'mol qiladi. Katta yoshdagi kishi jismining 82 foizini, olti haftalik embrionning 97,5 foizini, yangi tug'ilgan chaqaloqning ham organizmining asosiy qismini suv tashkil etadi. Katta yoshdagi kishi bir kecha-kunduzda 2,5 litr suv iste'mol qiladi, undan 1,2 litri ichimlik suviga to'g'ri keladi, 1 litri turli oziq-ovqat mahsulotlari, meva-sabzavotlar tarkibidagi suv orqali iste'mol qilinadi, 0,3 litri organizmda modda almashinuvi jarayonida paydo bo'ladi⁷.

Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo aholisining har 10 nafardan 4 nafari toza ichimlik suvi yetishmaydigan hududlarda yashaydi. BMT ekspertlari tomonidan 2030 yilga borib Yer shari aholisi 8,6 milliardga, 2050 yilda esa 9,8 milliardga yetishi bashorat qilinmoqda. Tabiiyki, insoniyat ko'paygan sari suvga bo'lgan talab ortib boradi.

Okean va yirik dengizlardan ancha olisda, qurg'oqchil mintaqada joylashgan O'zbekiston uchun ham suvning ahamiyati benihoya katta. Mamlakatimizda foydalaniladigan suv resurslarining 80 foizga yaqini (taxminan 41,5 km³ /yil) qo'shni respublikalar hududidagi muzliklar hisobiga shakllanadi. Global iqlim o'zgarishlari sababli Tojikistondagi mavjud 8 mingdan ortiq muzliklar maydonining 30

¹ O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi, Universiteti, Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi bosh ilmiy xodimi, dotsent

² <https://water.gov.uz/public/files/1/5f48e327b7732.pdf>

³ <https://www.thesisat.org/su-tasarrufu-yapmanin-yollari.html>

⁴ <https://hidoyat.uz/49451>

⁵ <https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/abu-nasr-forobiy-873-950/?imlo=k#>

⁶ <https://lex.uz/docs/20596>

⁷ <https://soglom.uz/archives/952>



foizi, Qirg'izistondagi 10 mingga yaqin muzliklar maydonining 16 foizi erib ketgan. 2030 yilga borib muzliklarning yana 15–20 foizi yo'qolib ketishi bashorat qilinmoqda⁸.

Toza ichimlik suvi – Yer sayyorasida insoniyat kun ko'rishi uchun eng zaruriy shartlardan biri. Suv tiklanuvchi resurs bo'lsada, dunyo aholisi ortib borayotgani hisobiga suv tanqisligi muammosi paydo bo'lgan hududlar soni ham yildan yilga ko'paymoqda.

Science Newsning ma'lum qilishicha, yer yuzining 7.6 mlrd aholisidan 2 mlrd kishi toza ichimlik suviga muxtoj⁹. BMTning hisobotiga ko'ra agarda shunday davom etaversa, 2050 yilga borib sayyoramiz aholisining yarimini inson uchun kerak bo'lgan toza ichimlik suvini iste'mol qilishga imkoni bo'lmaydi. Bunga ikkita asosiy omil sabab bo'ladi: aholi sonini oshishi va iqlimning o'zgarishi. Yer yuzida suv tanqisligi eng yuqori bo'lgan mamlakatlar bular: Hindiston, Efiopiya, Nigeriya, Xitoy, Kongo demokratik Respublikasi, Indoneziya, Tanzaniya, Uganda, Pokiston, Keniya va boshqalar¹⁰.

Suvdan foydalanish sohasidagi dunyoning ayrim olimlari, mutaxassislar va muxandis-gidrotexniklar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijasida suv tanqisligini kamaytirish mexanizm uchga bo'linishini isbotlab berishgan:

1. Suv resurslarini iste'mol qilishni qisqartirish;
2. Yer osti suvlaridan qo'shimcha ravishda foydalanish bo'yicha investisiya loyixalarini jalb qilish;
3. Suv resurslarini taqsimotini qayta ko'rib chiqib maqsadli ravishda suvdan foydalanish¹¹.

Countrymetres ma'lumotlariga ko'ra, 2020 yilda sayyorada aholining yillik o'sish ko'rsatkichi 95 millionni tashkil etadi. Taqqoslash uchun, 2015 yilda bu ko'rsatkich 83 mln kishiga teng bo'lgan. Qayd etib o'tish lozimki, yer aholisi 3 karraga ko'paygan davrda chuchuk suvdan foydalanish hajmi 17 martaga ortgan. Ustiga-ustak, ba'zi prognozlariga ko'ra, 20 yildan keyin chuchuk suvga bo'lgan talab hajmi yana 3 karraga ortishi mumkin.

Chuchuk suv yetishmovchiligi muammosi O'zbekistonga ham begona emas. Suv tanqisligi muammosi bo'lgan mamlakatlar ro'yxatida O'zbekiston 25-o'rinni egallaydi. Mamlakatda suv tanqisligi darajasi yuqori deb baholanadi.

2020 yil 16 sentyabr kuni prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida o'tkazilgan videosektor yig'ilishida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish masalasi muhokama qilingan edi. Unda ta'kidlanishicha, so'nggi 10 yilda O'zbekistonda suv zaxiralari 12 foizga, joriy yilda o'tgan yilgi bilan solishtirganda 15 foizga kamaygan¹².

O'zbekiston Respublikasi Orol dengizi havzasida joylashgan bo'lib, uning asosiy suv manbai Amudaryo va Sirdaryo daryolari, shuningdek, ichki daryo va soylar hamda yer osti suvlaridir. Ma'lumki, respublikamizda bir yilda o'rtacha 52 mlrd m³ suv ishlatiladi, shundan 80 foizi trenschejaraviy daryolar hissasiga to'g'ri kelib, qo'shni davlatlar hududidagi muzliklar va qorlarning erishi hisobiga shakllanadi. Respublikamiz oladigan suvning 90 foizi qishloq xo'jaligi sohasida foydalaniladi. Biroq, so'nggi yillarda yaqqol sezilayotgan global iqlim o'zgarishi va antropogen ta'sirlar oqibatida tog'liklardagi muzliklar maydonining kamayishi natijasida Markaziy Osiyoning asosiy daryolari hisoblangan Amudaryo va Sirdaryoning suvlik darajasining kamayishi kuzatilmoqda. Chuchuk va qishloq xo'jaligi uchun yaroqli bo'lgan suv resurslari tanqisligi sharoitida Amudaryo va Sirdaryo havzasidagi davlatlar, shu jumladan, O'zbekistonda ham aholi soning o'sishi va iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida suvga bo'lgan talab yanada ortib bormoqda. Bundan

⁸ <https://water.gov.uz/public/files/1/5f48e327b7732.pdf>

⁹ <https://www.sciencenews.org/>

¹⁰ <https://news.rambler.ru/other/40629845-ostryy-defitsit-pitevoy-vody-top-10-stran-mira/>

¹¹ <https://panor.ru/articles/mirovoy-opyt-upravleniya-vodnymi-resursami-innovatsiya-vodoobespecheniya-i-vodosberezeniya/13957.html>

¹² <https://kun.uz/news/2020/09/19/suvni-qanday-tejash-mumkin.>



ko‘rinadiki, bu sharoitda qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan samarali va tejimli foydalanish, ayniqsa, ekinlarni sug‘orishda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish masalasa dolzarbdir¹³.

2021 yil 24 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Miziyoyev raisligida o‘tgan yig‘ilishda 2021 yilgi sug‘orish mavsumida suv ta‘minoti 25 foiz kam bo‘lishi kutilayotgani aytiladi. Shu bois, 430 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish orqali 3 mlrd kubmetr suvni tejash lozimligi ta‘kidlandi¹⁴.

Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 dekabrda PQ-4919-son “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi hamda suv resurslariga bo‘lgan talabning o‘sib borishi sharoitida qishloq xo‘jaligida suvdan foydalanish samaradorligini keskin oshirish vazifalari belgilanib, 2021 yilda 160 ming gektar paxta, 30 ming gektar mevali ekinlar, 15 ming gektar uzum va 5 ming gektar boshqa ekinlar maydonlarida tomchilatib sug‘orish, 14 ming gektardan oshiq donli ekinlar, 2 ming gektar sabzavot va poliz hamda 2 ming gektar ozuqabop ekinlar yetishtiriladigan maydonlarda yomg‘irlatib sug‘orish, 623 gektar paxta yetishtiriladigan maydonlarda diskret sug‘orish texnologiyasini joriy qilish topshirig‘i belgilangan.

1993 yil 6 may kuni O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi 837-XII-son Qonuni¹⁵ qabul qilingan. Ushbu qonun 29 ta bob, 119 ta moddadan iborat bo‘lib, ushbu Qonunning maqsadi suvga doir munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Mazkur Qonunning asosiy vazifalari aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvlardan oqilona foydalanishni ta‘minlash, suvlarni bulg‘anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash, suvlarning zararli ta‘sirining oldini olish hamda ularni bartaraf etish, suv ob‘yektlarining holatini yaxshilashdan, shuningdek suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo‘jaliklari hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir. Qonunning 2¹-moddasida yer osti suvlari, yer usti suvlari, melioratsiya ob‘yektlari suvlar, suv iste‘moli (suvni iste‘mol qilish), suv iste‘molchilari uyushmasi, suv iste‘molchisi, suv ob‘yekti, suv ob‘yektlarini muhofaza qilish, suv rejimi, suv resurslari, suv xo‘jaligi, suv xo‘jaligi ob‘yekti, suvdan foydalanish, suvdan foydalanuvchi va suvlarning zararli ta‘siri, transchegaraviy suv ob‘yektlari va transchegaraviy suvlar kabi asosiy tushunchalar berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq va suv xo‘jaligi davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»¹⁶gi 2018 yil 12 fevraldagi PF-5330-son Farmoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi negizida Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Suv xo‘jaligi vazirligi tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» 2018 yil 17 apreldagi PQ-3672-son Qarori¹⁷ga binoan Suv xo‘jaligi vazirligining tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv xodimlarining cheklangan soni, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, tizimdagi ekspluatatsiya tashkilotlarining tuzilmalari va boshqaruv xodimlarining cheklangan soni tasdiqlandi. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida» 2018 yil 3 iyuldagi 500-son qarori¹⁸ga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanib, vazirlikning asosiy faoliyati va vazifalari belgilab berilgan.

Jumladan, ushbu qarorga muvofiq suv resurslarini boshqarish, suvlarning hisobi, hisoboti va balansini shakllantirish sohasida yagona siyosatni amalga oshirish, shuningdek, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, suvlarning zararli ta‘sirining oldini olish va bartaraf etish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

¹³ <https://water.gov.uz/public/files/1/5f48e327b7732.pdf>

¹⁴ <https://www.gazeta.uz/uz/2021/02/25/water-supply/>

¹⁵ <https://lex.uz/docs/12328>

¹⁶ <https://lex.uz/uz/docs/3586971>

¹⁷ <https://lex.uz/docs/3687875>

¹⁸ <https://lex.uz/docs/3812729>



aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va atrof-muhitning suvga bo‘lgan muttasil oshib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlar yaratish, suv resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlash;

suv xo‘jaligi ob‘yektlarini modernizatsiyalash, rivojlantirish va qurilish ishlarini sifatli tashkil etish, qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish, shuningdek, xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lgan suv xo‘jaligi ob‘yektlarini loyihalash va ekspertiza qilish ishlariga malakali xorijiy ekspertlar va konsalting tashkilotlarini jalb qilish va boshqalar vazirlikning asosiy vazifalari bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2019 yil 9 oktyabrdagi PQ-4486-son Qarori¹⁹ga ko‘ra mamlakatimizda suv resurslarini boshqarish va suv xo‘jaligi ob‘yektlaridan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, irrigatsiya va melioratsiya loyihalarini amalga oshirish samaradorligini ta‘minlash, suv xo‘jaligini boshqarish sohasida bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, ushbu sohada ilm-fanni rivojlantirish borasidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasida suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021 – 2023 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5005-son Qarori²⁰ imzolandi.

Strategiya mamlakat suv resurslarini barqaror boshqarish va irrigatsiya sektorini takomillashtirishni qamrab oladigan bir qator infratuzilmaviy, siyosiy, institusional va salohiyatni rivojlantirish choralari o‘z ichiga oladi.

Uning doirasida quyidagilar ta‘minlanadi:

irrigatsiya tizimi kanallari beton qoplamali qismi 35 foizdan 38 foizgacha oshishi, irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlari foydali ish koeffitsiyentining 0,63dan 0,66gacha oshishi;

suv ta‘minoti darajasi past bo‘lgan sug‘oriladigan maydonlar 526 ming gektardan 424 ming gektargacha kamaytirilishi;

suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish 308 ming gektardan 1,1 million gektargacha, shu jumladan tomchilatib sug‘orish texnologiyasi 121 ming gektardan 822 ming gektargacha yetkazilishi;

sho‘rlangan maydonlar 1 926 ming gektardan 1 888 ming gektarga, shu jumladan o‘rtacha va kuchli darajada sho‘rlangan yerlar 581 ming gektardan 532 ming gektargacha qisqartirilishi;

qishloq xo‘jaligida foydalanishdan chiqib ketgan jami 232 ming gektar sug‘oriladigan yer maydonlari qayta foydalanishga kiritilishi;

60 ta yirik suv xo‘jaligi ob‘yekti raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan boshqaruvga o‘tkazilishi;

suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi 1688ta nasos stansiyasidagi 5 231ta nasos agregati elektr energiyasi iste‘moli va suv sarfi hisobi monitoringi onlayn rejimda olib borilishi;

suv xo‘jaligida DXSH tamoyillari asosida jami 124 ta loyiha amalga oshirilishi, sug‘orish uchun suv yetkazib berish xarajatlari 9 foizi suv iste‘molchilari tomonidan qoplanishi.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, suvni tejash, taqsimoti va ichimlik suvini tozaligini saqlash umumbashariy muammo. Suv – inson hayoti, salomatligi, bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun ham xalqimiz suvni azal-azaldan muqaddas hisoblab, bulog‘u quduqlarni asrab-avaylashgan. O‘zbekiston tabiatini, boy tabiiy resurslarini asrab-avaylash ulardan hozirgi va kelgusi avlodlar manfaatlarini yo‘lida oqilona foydalanilishini ta‘minlash, ekologik xavfsizlikni, ayniqsa millat sog‘lig‘ini asrash va genofondini sog‘lomlashtirish, mamlakatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash asosiy maqsad va

¹⁹ <https://lex.uz/docs/4545898>

²⁰ <https://lex.uz/docs/5307918>



vazifamiz bo‘lmog‘i lozim. Suvdan oqilona foydalanilishi va u davlat tomonidan muhofaza etilishi kerak.

Yuqoridagilarga asosan quyidagilar taklif etiladi:

1. Suv resurslarini boshqarish va suvni tejash, aholi va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlari uchun suvlardan oqilona foydalanishni ta‘minlash, suvlarni ifloslanish va kamayib ketishdan saqlash, suv zahiralariга yetkaziladigan zararli ta‘sirning oldini olish hamda ularni bartaraf etish, suv ob‘yektlarining holatini yaxshilash maqsadida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo‘jaliklari va fuqarolar suv sohasidagi amaldagi qonunchilik talablariga qat‘iy rioya qilishlari lozim.
2. Suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan aholi o‘rtasida suvni tejash borasida doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilishini tashkillashtirilishi kerak.
3. Aholi tomonidan suvni muqaddas deb bilib uni avaylab asrash va suvni tejash madaniyatini yuksaltirish maqsadida bolalar bog‘chasidan boshlab, maktab va kolledjlarda tarbiyaviy ishlarni jadallashtirilishi va korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo‘jaliklari, xonadonlar, dala hovlilar va boshqa joylarda fuqarolar tomonidan suvni behuda oqizib qo‘yish holatlarini oldini olish kerak.
4. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksining 60-modda (Tabiiy resurslarga egalik huquqini buzish), 72-modda (Suv resurslarini muhofaza qilish qoidalarini buzish), 74-modda (Suvdan foydalanish va suv iste‘moli qoidalarini buzish), 75-modda (Suvlarning davlat hisobini yuritish qoidalarini buzish) hamda 76-moddalarini (Suv xo‘jaligi inshootlari va qurilmalarini shikastlantirish, ulardan foydalanish qoidalarini buzish) sanksiyasini og‘irlashtirilishi lozim.
5. Kelgusida suv resurslarini mustahkam boshqarish va suvni tejash sohasida innovasion texnologiyalarni keng joriy qilinishi maqsadga muvofiqdir.

